



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№3

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

3-jild
3-son
March, 2026

February, 2026
Volume 3
Number 3

**ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА**
**Научно-практический
электронный журнал**

INNOVATIVE ECONOMY
**Electronic scientific and
practical journal**



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik (Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor)

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)
Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)
Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)
Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)
Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)
Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)
Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)
Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)
Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)
Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)
Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)
Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)
Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)
Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)
Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)
Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)
Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)
Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик
Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор
Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор
Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор
Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор
Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор
Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент
Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор
Якубова Шаминаур Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент
Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент
Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент
Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Эрашиева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент
Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент
Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент
Джанузакоев Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент
Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)
Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)
Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)
Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



**Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil
va audit**

**Accounting, economic analysis and
audit**

**Бухгалтерский учет,
экономический анализ и аудит**



RAQAMLI BOSHQARUV SHAROITIDA AGROSANOAT KLASTERLARI FAOLIYATINING IQTISODIY TAHLILI

Astanayev Kulmaxammat Sanayevich

ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КЛАСТЕРОВ АГРОТАКСИСТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОГО УПРАВЛЕНИЯ

Астанаев Кулмахаммат Санаевич

ECONOMIC ANALYSIS OF THE ACTIVITIES OF AGROTAXI INDUSTRY CLUSTERS IN THE CONTEXT OF DIGITAL MANAGEMENT

Astanaev Kulmakhammat Sanaevich

Received: March 7, 2026 Revised: March 10, 2026 Accepted: March 14, 2026 Published: April 1, 2026

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida agrosanoat klasterlari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash masalalari tahlil qilingan. Raqamli boshqaruv texnologiyalarining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, qayta ishlash va logistika jarayonlariga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqot natijasida agrosanoat klasterlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishi, resurslardan foydalanishni optimallashtirishi hamda boshqaruv jarayonlarini takomillashtirishi aniqlangan. Shuningdek, raqamli boshqaruv asosida klasterlar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: agrosanoat klasteri, raqamli iqtisodiyot, raqamli boshqaruv, iqtisodiy samaradorlik, innovatsiyalar, qishloq xo'jaligi, klaster rivojlanishi.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы оценки экономической эффективности агропромышленных кластеров в контексте цифровой экономики. Изучается влияние технологий цифрового управления на процессы сельскохозяйственного производства, переработки и логистики. В результате исследования установлено, что внедрение цифровых технологий в агропромышленных кластерах повышает эффективность производства, оптимизирует использование ресурсов и улучшает процессы управления. Также разработаны предложения по повышению экономической эффективности кластеров на основе цифрового управления.

Ключевые слова: агропромышленный кластер, цифровая экономика, цифровое управление, экономическая эффективность, инновации, сельское хозяйство, развитие кластеров.

Abstract: This article analyzes the economic performance of agro-industrial clusters in the context of the digital economy. It examines the impact of digital management technologies on agricultural production, processing, and logistics processes. The study found that the implementation of digital technologies in agro-industrial clusters increases production efficiency, optimizes resource use, and improves management processes. Proposals for improving the economic performance of clusters based on digital management are also developed.

Keywords: agro-industrial cluster, digital economy, digital management, economic efficiency, innovation, agriculture, cluster development.

■ KIRISH

Hozirgi davrda global iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ishlab chiqarish jarayonlari va boshqaruv tizimlarining tubdan o'zgarishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi va agrosanoat majmuasida raqamli texnologiyalarni qo'llash ishlab chiqarish samaradorligini oshirish,

resurslardan oqilona foydalanish hamda mahsulot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Agrosanoat klasterlari qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish, qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish jarayonlarini yagona tizimga birlashtiruvchi samarali iqtisodiy model hisoblanadi. Bunday tizimlarda raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish ishlab chiqarish jarayonlarini



avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlilini takomillashtirish va boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi.

O'zbekiston iqtisodiyotida qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, klaster tizimini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli agrosanoat klasterlari faoliyatini raqamli boshqaruv asosida iqtisodiy tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biridir.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – raqamli boshqaruv sharoitida agrosanoat klasterlari faoliyatining iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish hamda ularni rivojlantirish bo'yicha ilmiy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Klaster nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi amerikalik iqtisodchi Michael Porter nomi bilan bog'liq. Uning tadqiqotlarida klasterlar hududiy jihatdan yaqin joylashgan o'zaro bog'liq korxonalar, ta'minotchilar, ilmiy muassasalar va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar majmuasi sifatida talqin qilinadi. Porterning [1] fikriga ko'ra, klaster tizimi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, innovatsiyalarni rag'batlantirish hamda raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi. Uning ilmiy ishlari agrosanoat klasterlari faoliyatini tashkil etish va boshqarish bo'yicha nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ishlab chiqarish tizimlarini transformatsiya qilish masalalari nemis iqtisodchisi Klaus Schwab tomonidan ham keng yoritilgan. Uning "To'rtinchi sanoat inqilobi" konsepsiyasida raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, internet tarmoqlari va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining iqtisodiyot tarmoqlariga, jumladan qishloq xo'jaligiga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Tadqiqotchining fikricha, raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish hamda iqtisodiy tizimlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.[2]

Qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish va aqlii qishloq xo'jaligi konsepsiyasini rivojlantirish masalalari FAO [3] hamda boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan ham keng o'rganilgan. Ularning tadqiqotlarida raqamli texnologiyalar, masofaviy monitoring, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

Mahalliy iqtisodchi olimlar tomonidan ham agrosanoat majmuasini rivojlantirish va klaster tizimini takomillashtirish masalalari keng o'rganilgan. Jumladan, akademik Q. Abdurahmonov [4] o'z ilmiy ishlarida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, investitsiya jarayonlarini faollashtirish va klaster tizimini rivojlantirish orqali tarmoq samaradorligini oshirish masalalarini tahlil qilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olim M. Yunusova o'z tadqiqotlarida agrosanoat majmuasini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini o'rganib, qishloq xo'jaligi tarmog'ida integratsion jarayonlarni rivojlantirish zarurligini asoslab bergan. Tadqiqotchining fikriga ko'ra,

agrosanoat klasterlari ishlab chiqarish, qayta ishlash va realizatsiya jarayonlarini yagona tizimga birlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.[5]

Shuningdek, iqtisodchi olim A. Rasulev [6] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda hududiy iqtisodiyotda klaster tizimining ahamiyati, innovatsion rivojlanish omillari hamda iqtisodiy samaradorlikni baholash metodologiyasi o'rganilgan. Uning ilmiy ishlari hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda klaster tizimining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, statistik tahlil, taqqoslash, tizimli yondashuv, iqtisodiy-matematik usullar hamda ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Agrosanoat klasterlarining iqtisodiy samaradorligini baholashda quyidagi ko'rsatkichlar asos qilib olindi:

ishlab chiqarish hajmi; mehnat unumdorligi; investitsiyalar hajmi; rentabellik darajasi; eksport hajmi.

Tadqiqotda qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ham o'rganildi. Raqamli boshqaruv tizimlari sifatida quyidagi texnologiyalar ko'rib chiqildi:

aqlii qishloq xo'jaligi (Smart Agriculture); sun'iy intellekt asosida tahlil tizimlari; masofaviy monitoring (dronlar, sensorlar); elektron logistika platformalari; raqamli agroplatformalar.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Agrosanoat klasterlarni raqamli boshqarish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish jarayonlarini bir xil hududda jamlash orqali, transport, logistika, marketing, moliyaviy va boshqa xizmatlarni optimallashtirish, ularning sifatini oshirish va ularning xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi. Agrosanoat klasterlarni raqamli boshqarish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifati va xavfsizligini nazorat qilish, ularning standartlarga va sertifikatlarga mosligini ta'minlash, ularning eksport imkoniyatlarini kengaytirish, ularning bozor ehtiyojlariga moslashtirish va ularning narxlarini stabilizatsiya qilishga yordam beradi. Agrosanoat klasterlarni raqamli boshqarish, qishloq xo'jaligi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan, aniqlash, kuzatish, nazorat, avtomatlashtirish, ma'lumotlar bazasi, elektron hukumat, elektron tijorat va boshqalarini joriy etish orqali, innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ilm-fan yutuqlarini amalga oshirish va tijoratlashtirishga imkon yaratadi.[7-8] Agrosanoat klasterlarni raqamli boshqarish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchilar, qayta ishlovchi korxonalar, eksportyorlar, davlat organlari, banklar, konsalting tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot markazlari va boshqa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali, ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish jarayonlarini bir xil platformada birlashtirish, ularning o'zaro hamkorlik va aloqalarini oshirish, ularning iqtisodiy faoliyatini shaffoflashtirish va nazorat qilishni ta'minlaydi.

1. Agrosanoat klasterlari qishloq xo'jaligi



mahsulotlarini etishtirish, qayta ishlash, saqlash, logistika va realizatsiya qilish jarayonlarini yagona tizim asosida tashkil etishga xizmat qiluvchi integratsiyalashgan iqtisodiy tuzilma hisoblanadi. Bunday klaster tizimi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari, qayta ishlash korxonalari, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar hamda ilmiy-tadqiqot muassasalari o'rtasida samarali kooperatsiyani ta'minlaydi.

So'nggi yillarda qishloq xo'jaligida raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish agrosanoat klasterlari faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim omilga aylanmoqda. Raqamli boshqaruv – bu ishlab chiqarish jarayonlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida nazorat qilish, monitoring olib borish va boshqarish tizimidir.

Raqamli boshqaruv tizimi agrosanoat klasterlari faoliyatida quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqt rejimida monitoring qilish;
- resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- logistika jarayonlarini optimallashtirish;
- mahsulot etkazib berish zanjirini boshqarish;
- bozor talabini prognoz qilish.

Natijada klaster tizimida ishlab chiqarish xarajatlari kamayadi, hosildorlik ortadi va mahsulotlarning raqobatbardoshligi oshadi.

2. Raqamli texnologiyalar asosida agrosanoat klasterlari faoliyatini iqtisodiy baholash

Agrosanoat klasterlari faoliyatini iqtisodiy jihatdan tahlil qilishda bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Jumladan: ishlab chiqarish hajmi; mahsulot tannarxi; rentabellik darajasi; qo'shilgan qiymat; eksport salohiyati.

Raqamli boshqaruv tizimlari ushbu ko'rsatkichlarni aniqlash va monitoring qilish jarayonini sezilarli darajada soddalashtiradi. Masalan, raqamli agroplatformalar yordamida er maydonlarining holati, suv sarfi, o'g'itlardan foydalanish darajasi va hosildorlik ko'rsatkichlari aniq hisoblab boriladi.[8-9]

Natijada agrosanoat klasterlarida ishlab chiqarish samaradorligini baholash uchun quyidagi iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanish mumkin:

- taqqoslash usuli – klaster faoliyatini hududiy yoki tarmoq ko'rsatkichlari bilan solishtirish;
- indeks usuli – ishlab chiqarish hajmi va samaradorlik dinamikasini aniqlash;
- rentabellik tahlili – investitsiya va ishlab chiqarish samaradorligini baholash;
- regression tahlil – raqamli texnologiyalar ta'sirini aniqlash.

Masalan, raqamli boshqaruv joriy etilgan klasterlarda suv sarfi o'rtacha 15–20 foizga qisqarishi, hosildorlik esa 10–15 foizga oshishi kuzatiladi. Bu esa umumiy iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

3. Agrosanoat klasterlarida raqamli boshqaruv texnologiyalarining iqtisodiy samaradorligi

Raqamli boshqaruv texnologiyalari agrosanoat klasterlari faoliyatining barcha bosqichlarini qamrab oladi. Jumladan:

1. Yer resurslarini boshqarish sun'iy yo'ldosh monitoringi va GIS texnologiyalari yordamida er maydonlarining unumdorligi aniqlanadi va optimal ekin tuzilmasi shakllantiriladi.

2. Suv resurslaridan foydalanishni optimallashtirish. Aqlli sug'orish tizimlari suv resurslaridan tejamkor foydalanish imkonini beradi.

3. Hosildorlikni prognoz qilish
Raqamli monitoring tizimlari orqali ekinlarning rivojlanish bosqichlari nazorat qilinadi va hosildorlik prognozi tuziladi.

4. Logistika va marketingni boshqarish
Raqamli platformalar yordamida mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga samarali etkazib berish imkoniyati yaratiladi.

Raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish natijasida quyidagi iqtisodiy samaralar yuzaga keladi: ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi; mahsulot sifatining oshishi; eksport salohiyatining kengayishi; qo'shilgan qiymat zanjirining rivojlanishi.

Tahlillarga ko'ra, raqamli texnologiyalar joriy etilgan agrosanoat klasterlarida ishlab chiqarish samaradorligi o'rtacha 20–30 foizga oshishi mumkin.

4. O'zbekiston sharoitida agrosanoat klasterlarini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlar

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va klaster tizimini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, paxta-to'qimachilik, meva-sabzavotchilik hamda chorvachilik yo'nalishlarida agrosanoat klasterlari tashkil etildi.

Ushbu klasterlar faoliyatida raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- agrotexnik jarayonlarni raqamlashtirish;
- elektron agroxizmat tizimlarini joriy etish;
- agrotexnik ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- logistika tizimlarini avtomatlashtirish.

Natijada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi va eksport salohiyati oshib bormoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, klaster tizimi joriy etilgan hududlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada ortgan.

Shuningdek, raqamli boshqaruv tizimlari agrosanoat klasterlari faoliyatida investitsion jozibadorlikni ham oshirmoqda. Bu esa yangi texnologiyalarni joriy etish va innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini kengaytiradi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish orqali agrosanoat klasterlari qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan er maydonlari, suv resurslari hamda ekinlar holatidan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, qo'shilgan qiymat zanjirini shakllantirish, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga etkazib berish, zamonaviy innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etish, hosildorlik darajasini oshirish, iqtisodiy manfaatdorlikni kuchaytirish hamda qishloq aholisi turmush darajasini yaxshilash kabi ustuvor yo'nalishlarda muhim natijalarga erishishga xizmat qiladi.



Raqamli boshqaruvning iqtisodiy tahlilini amalga oshirish jarayonida qishloq xo'jaligi tarmog'ida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning iqtisodiy maqsadga muvofiqligini, iste'molchilar faolligini hamda boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarni baholash imkonini beruvchi "Aqli chorvachilik" texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Astanayev Kulmaxammat Sanayevich Iqtisodiyot va pedagogika universiteti iqtisodiyot kafedrasida dotsenti / Астанаев Кульмахаммат Санаевич, доцент кафедры экономики Университета экономики и педагогики / Astanayev Kulmaxammat Sanayevich, Associate Professor of the Department of Economics at the University of Economics and Pedagogy
E-mail: kulmahammatastanayev@gmail.com

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Porter M.E. Clusters and the New Economics of Competition. – Harvard Business Review.

2.Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum, 2016.

3.FAO. Digital Agriculture Transformation: Digital Technologies for Food and Agriculture. – Rome, 2019.

4.OECD. The Digitalisation of Agriculture: Policy Perspectives. – Paris, 2020.

5.Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. – Toshkent: "Iqtisodiyot", 2019.

6.Yunusova M. Agrosanoat majmuasini rivojlantirishning iqtisodiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2018.

7. Maxmatqulov, G. O. (2022). A complex systemic issue of the development of the network of trade services. Development and innovations in science, 1(16), 10-13.

8. Kh, G. (2022). Makhmatkulov. Econometric modeling of innovative activities of trading enterprises in a healthy competitive environment. Экономика и предпринимательство, 8.

9. Махматкулов, F. (2022). Аҳолига савдо хизматларини инновацион ривожлантириш салоҳиятини баҳолашда тренд моделларини танлаш мезонлари (қашқадарё вилояти мисолида). Iqtisodiyot Va ta'lim, 23(4), 381-386.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz